

ABU NASR FOROBIYNING MUSIQA ILMIGA OID FIKRLARI

Arislonova Ra'no

Qarshi Davlat Universiteti Yoshlar bilan ishlash bo'limi tyutori

Annotatsiya: Ushbu maqolada alloma Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmiga oid qarashlari, fikrlari, g'oyalari hamda bu qarashlarning hozirgi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa tarixi, Abu Nasr Forobiyning hayoti, Forobiyning asarlari, "Katta musiqa kitobi" mazmuni.

Musiqa qadim zamonlardan boshlab kuchli tarbiya vositasi sifatida ta'lim-tarbiyaning barcha tizimlarida qo'llanilgan. Ko'zga ko'ringan davlat arboblari, olimlar, pedagoglar san'atning barcha turlarida jumladan, musiqa san'atida ham insonlarning ongli va ruhiyatida chuqur ta'sir qilib ularda yuksak ma'naviy xislatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasida qarashganlar va bunda katta e'tibor berganlar. O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda og'zaki an'anadagi ustozona musiqa san'ati bu haqida guvohlik beradi. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (Sharq poetik asarlarida tasvirlangan miniatyuralar), sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari va o'rta asrdagi Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlarning musiqiy risolalari tarjimasi o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi. O'zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari Markaziy Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan mustahkam bog'langan. Bu musiqa asarlari X-XI asrgacha (ya'ni bu xalqlar faol chegaralanganlaricha) o'zida bir butunlikni ifoda etdi, keyinchalik u o'zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarlarining kuchi uning haqchil va tushunarligida kishilar ichki ruhiy dunyosiga emotsional ta'sir ko'rsata olishadidir. Barkamol avlodni tarbiyalashda musiqa san'atining ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir. Milliy dastur yuksak ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etar ekan bu borada musiqiy merosimizning o'рни ahamiyatlidir. O'zbek musiqa san'atining ildizlari juda qadimiydir. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar va arxeologik qazilma topilmalari shundan dalolat beradi. Eramizdan oldingi III asrda qariyb 2400 yil muqaddam Iskandar Zulqarnay O'rta Osiyoni zabt etganida yunonlar ajdodlarimiz bo'lmish va xorazmiylklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning mashshoq honandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiq va kuylarini yuksak ijrochilik san'ati shuningdek, xushnavo turli cholg'u asboblari o'rganib o'zlarining musiqa

madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblari yevropa xalqlari amaliyotida qo'llanib, yangi ko'rinish va nomlanishda tarqalgan. Musiqaning keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o'rta asr mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Safiuddin Urmaviy, Abduqodir Marog'iy, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholaydi. Ular musiqa san'atiga nihoyatda katta e'tibor qaratib, mazkur san'at turi kishilar ongi va ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita sifatida qaragan. Bunda ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyoti va professional musiqa asarlariga alohida urg'u beradi va ushbu asarlar kishini ruhlantirish, unda ijobiy fazilatlarni rivojlantirish hamda yuksak his-tuyg'ularni shakllantirish kuchiga ega ekanligi to'g'risida so'z yuritadi. Musiqa tarbiyasi va ta'lim nazariyasi hamda amaliyoti butun madaniyatimiz bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat madaniyatining boshqa sohalarida bo'lganidek musiqa ham uning tajribiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish jarayonida muhim xususiyatlar va qonuniyatlar yorqin namoyon bo'ladi. Qadimgi madaniyatning naqadar boyligini obidalar, buyuk mutafakkirlar yozuvchilar, shoirlar adabiy merosi dalolat beradi. Tarixda o'rta asrlarda talaygina atoqli musiqachilar, shoirlar, san'atkorlarning nomlari saqlanib qolgan. O'rta osiyo musiqasi haqida qimmatli ma'lumotlarni IX asrdan buyon saqlanib kelinayotgan yozma manbalardan olish mumkin.

Musiqa ta'limida nihoyatda katta ahamiyat bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasida qomusiy olim Muhammad al Forobiy alohida o'rin egallaydi. O'rta asr Sharq musiqa madaniyatining eng yirik nomoyondasi bo'lgan. To'liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy (873, Forob shahri-950, Damashq)-O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharxlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan uchun "Al Muallimi ussoniy", "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo'ldi. Forobiy Sirdaryo sohilidagi Forob (O'tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasi tavallud topadi. Forobiy qomusiy olim bo'lishi bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Forobiy musiqani inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi o'millardan deb bildi. Forobiy musiqasining aksariyat hollarda insonning nozik sezgilari, tug'ma iste'dod va salohiyatlarining mevasi ekanligini ta'kidlash bilan bir barobar, uning o'z navbatida, inson ma'naviyati va ma'rifatini, ongini va tushunchalarini to'ldiruvchi ruhiy ne'mat ekanligini o'qtiradi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u zabardast bastakor hamda ud, tanbur, g'ijjak, nay, chang va qunun asboblarning mohir ijrochisi bo'lgan. Forobiy o'tkir didi va ajoyib musiqaviy qobiliyati tufayli O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda yashovchi turli xalqlarning musiqa madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lgan. Uning musiqaviy qarashlarining shakllanishida, ayniqsa, Markaziy Osiyo va Eon xalqlarining musiqiy madaniyati katta ta'sir ko'rsatgan. Bu xalqlarning musiqa merosining amaliy va ilmiy tomonlarini chuqur o'zlashtirganligi Forobiyni

asarlarida ma'lum bo'ladi. Forobiy musiqa ilmi va faoliyatida bab-baravar dong taratgan. Uning ijrochilik va bastakorlik ijodi shu qadar yuksak cho'qqilarga erishganki, hatto bu haqida xalqlar orasida afsonalar ham vujudga kelgan. Ayniqsa, uning "Kitob al-musiqiy al-Kabir" ("Katta musiqa kitobi") olim nomini musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida faqat Sharqqa emas, G'arbga ham ma'lum qildi. Avvalo, Forobiy fanlar tasnifi musiqani matematika ilmi tarkibiga kiritadi. Forobiy "Ixso al-ulum" asarida esa musiqa ilmini quyidagicha ta'riflab: "Musiqa ilmiga kelganda qisqacha shuni aytish mumkinki, u ohanglarining turlarini, uning tuzilishi nimalardan iborat ekanligi va qaysi yo'llar bilan tashkil topishi hamda qanday hollarda o'tkir va ta'sirchan bo'lishini o'rganadi", -deydi va musiqa ilmini amaliy hamda nazariy qismlarga ajratadi. "Kitob al-musiqiy al-Kabir" kitobining birinchi kitobida musiqiy bilimlarning usul-qoidalari va unga bog'liq bo'lgan turli narsalarni o'rganish; ikkinchi kitobida zamonaviy musiqa asboblari va ulardan foydalanish yo'llari; uchinchisida esa, tovushlarning turlari haqidagi fikr bayon etiladi.

Forobiy musiqa san'atini insonning axloqiy-estetik takomili bilan birga, ilmiy bilimlar tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Forobiy fikricha, quyidagilar ilm odami uchun zarur hisoblanadi:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarini to'la bilishi lozim.

2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo'lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izoh etishga qobil va iste'dodli bo'lishi kerak.

3. Musiqa (san'ati) haqida noto'g'ri nazariyatga ega bo'lgan yozuvchilarning noto'g'ri nazariyalarini tanqid eta bilsin, xato va to'g'ri nazariyalar o'rtasidagi farqni ko'rsata bilsin. Ko'rinib turibdiki, Forobiyning "Kitob al-musiqiy al-Kabir" asari ham nazariy, ham axloqiy-estetik jihatdan qimmatga ega bo'lib, insonning ham aqliy, ham nafosat tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Musiqa tushunchasidan fikrimizda birinchi tasavvur etadigan narsa ohangdir. Ohang yo bir necha tovushlarni belgili va ajratilgan holda ketma-ket bayon etish yoki bir necha ohanglarni tartibli ravishda zehnga ta'sir kuchiga ega kuylarni ma'lum g'oyaga xizmat qiluvchi so'zlarda iste'mol bo'ladigan qilib, birin-ketin bayon etishdir. Chunonchi, inson bir turli sado-ohang vositasi bilan o'z fikrini bayon qilib, dilidagi xis-tuyg'uni va mulohazasini boshqalarga yetkazadi. Bu asar 925-928 yillar orasida yozilgan va u Mansur ibn Nuhga bag'ishlangan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Forobiy musiqa amaliyotiga oid atamalar tarkibiga asli forsiy yoki turkey bo'lganlarini olib kirdi. Forobiyning "Katta musiqa kitobi" Yaqin va O'rta sharada mustaqil musiqashunoslik fani vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega hamda shu mintaqa xalqlari musiqasiga oid atamalar tizimining shakllanishi va rivojiga asos solgan asarlardan bo'ldi.

Forobiy shuningdek, ilmi iyqo, ilmi ta'lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o'tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqa taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi alohida qayd etiladi. Shuningdek, kuylar uyg'unligi, kuy ijro etish usullari

haqida so'z yuritadi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Forobiy yangi musiqa asbobini yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Forobiy ning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning musiqiy qarashlari bugungi kun musiqa madaniyatining asosi hisoblanadi. Ularning fikrlari, qimmatli so'zlari, g'oyalari, risolalari, asarlari hamda ko'rsatmalari biz yoshlarni o'qib-o'rganishga, tafakkurimizni boyishga kerakli manba bo'lib xizmat qiladi. Bu asarlarni chuqur o'rganish jiddiy e'tibor talab qiladi. Zero, tariximizni bilmay turib qanday qilib buyuk kelajak qurish mumkin? Aynan shuning uchun ham Davlatimizda ilm-fanga e'tibor nihoyatda dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madrimov B.X. "O'zbek musiqa tarixi" Toshkent 2018y
2. "O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma" Toshkent 2014y
3. Ibrohimov .O.A, Xudoyev X.M. "Musiqa tarixi" Toshkent 2018y
4. Ziyonet.uz.